

UDC: 34(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-9666-4770

HUQUQIY IJTIMOIYLASHUV JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Umumta'lif fanlar va madaniyat” kafedrası
katta o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi
e-mail: r.mamatqulov@tsul.uz

Annotatsiya. Maqolada huquqiy ijtimoiylashuvning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, roli va ahamiyati o'rganilgan. Demokratik yangilanishlar sharoitida ijtimoiy munosabatlarga kirib kelayotgan huquqiy qadriyatlarni yoshlar tomonidan o'zlashtirilishida kelib chiqadigan ijobjiy va salbiy oqibatlar analiz, sintez, taqqoslash va hujjatlarni tahlil qilish metodlari orqali yondashilgan. Ushbu mavzuga kompleks metodologik nuqtayi nazardan yondashilgan. Maqolada ijtimoiylashuv to'g'risidagi nazariya va ta'limatlar, huquqiy ijtimoiylashuv bosqichlari va darajalari, shaxs ijtimoiylashuv jarayonida adaptatsiya va interiorizatsiya bosqichlar, huquqiy ijtimoiylashuv obyekti va subyekti yoritib berishga harakat qilingan. Huquqiy ijtimoiylashuv agentlari oila, məktəb, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalari tomonidan shaxsda huquqiy ko'nikmalarini hosil qilishga ta'sir doirasi o'rganilgan. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs xulq-atvorida kelib chiqadigan deviant xulq-atvor normalariga maqsadli ta'sir ko'rsatish bo'yicha nazariy ko'rsatmalar berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ijtimoiylashuv, huquqiy ijtimoiylashuv, adaptatsiya, interiorizatsiya, individ, ko'nikma, agent, tarbiya.

ПРАВОВАЯ СОЦИАЛИЗАЦИЯ КАК ОСНОВА РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Маматкулов Рашид Пазилбекович,
кандидат философских наук, старший преподаватель кафедры
“Общеобразовательные дисциплины и культура”
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье исследуются роль, место и значение правовой социализации в развитии общества. С помощью методов анализа, синтеза, сравнения и анализа документов изучены положительные и отрицательные последствия усвоения правовых ценностей молодежью, вступающей в социальные отношения в условиях демократического обновления. Осуществлен подход с комплексной методологической точки зрения. В статье делается попытка пролить свет на теорию и учение социализации, этапы и уровни правовой социализации, стадии адаптации и интернализации в процессе социализации личности, объекта и субъекта правовой социализации. Изучен масштаб влияния семьи, школы, сверстников и средств массовой информации как агентов правовой социализации на формирование юридических навыков у человека. Предприняты попытки дать теоретические рекомендации по целевому воздействию девиантных поведенческих норм, возникающих в поведении человека в процессе социализации.

Ключевые слова: общество, социализация, правовая социализация, адаптация, интернализация, личность, умение, агент, воспитание.

LEGAL SOCIALIZATION AS THE BASIS OF SOCIETY DEVELOPMENT

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich,
Senior lecturer of The Department of General Sciences and culture of
Tashkent State University of Law,
PhD in Philosophy

Abstract. The article examines the role, place and significance of legal socialization in the development of society. Using the methods of analysis, synthesis, comparison and analysis of documents, the positive and negative consequences of the assimilation of legal values by young people entering into social relations in the context of democratic renewal have been studied. The approach is carried out from an integrated methodological point of view. The article attempts to shed light on the theory and teaching of socialization, stages and levels of legal socialization, stages of adaptation and internalization in the process of socialization of a person, an object and subject of legal socialization. The scale of the influence of family, school, peers and the media as agents of legal socialization on the formation of legal skills in a person has been studied. Attempts have been made to give theoretical recommendations on the target impact of deviant behavioral norms that arise in human behavior in the process of socialization.

Keywords: society, socialization, legal socialization, adaptation, internalization, individual, skill, agent, upbringing.

Bizga ma'lumki, har qanday jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy munosabat va ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va mutanosiblik muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayon esa ijtimoiy ong va ijtimoiy borliqda o'z aksini topadi. Bugungi kunda ijtimoiy borliqda jadallik bilan yuz berayotgan o'zgarishlar ijtimoiy ong va kishilar dunyoqarashiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, demokratik yangilanishlar sharoitida kishilarda yangicha huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanishini talab etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda "Har qanday qonun ma'lum huquq berish bilan birga, zimmamizga majburiyat ham yuklaydi. Asosiy qonunimiz bilan birga fuqarolar zimmasiga Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyati yuklatilgan. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi, avvalambor, tarbiya muhit bilan bevosita bog'liqdir" deb, ta'kidlab o'tdilar. Bu yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatmoqda [1].

Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy ijtimoiylashuvning o'rni va roli juda kattadir. Shu nuqtayi nazardan huquqiy ijtimoiylashuv mavzusini chuquroq o'rganib uni amalda yoshlar huquqiy madaniyatni va huquqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyatini o'rganish, tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy ijtimoiylashuv uzoq vaqt davom etadigan murakkab jarayondir. Nemis faylasufi I. Kant tomonidan qo'yilgan falsafiy masala "Men nima qilishim mumkin?" degan savol-

ga huquqiy ijtimoiylashuv jarayoni yordamida bosqichma-bosqich javob berib boriladi. Har qanday jamiyat o'zligini saqlab qolishi uchun ijtimoiy tizimda o'z qadriyatlarini ishlab chiqadi va uni himoya qiladi (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, ekologik va h.k). Xususan, jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy qadriyatlar individ tomonidan o'zlashtirilishi huquqiy ijtimoiylashuv tushunchasi orqali tahlil qilinadi va o'rganiladi [2, 332-b.].

Ijtimoiylashuv kategoriyasining fanda keng qo'llanishi XX asrning 40-yillarida amerikalik olimlar (D. Dollerd, Dj. Kolman, V. Uolter va boshqalar) asarlarida o'z aksini topgan. Ijtimoiylashuv mavzusini sotsiolog olimlar E. Dyurgeym, M. Veber keyinchalik T. Parsonslar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ular individ jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarni, yurish turish qoidalarini, ijtimoiy normalarini va stereotiplarni o'zlashtirishni jarayon sifatida o'rganishgan. Bunday jarayon stixiyali hamda maqsadga muvofiq yo'naltirilgan tarzda namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlashgan.

Strukturaviy funksional yondashuv namoyondalari T. Parsons, R. Mertonlar ijtimoiylashuv jarayonini adaptatsiya tushunchasi orqali yoritib berishga harakat qilishgan. Adaptatsiya jonli organizmning tabiiy muhitga moslashishi hisoblanadi. Bunday jarayon keyinchalik jamiyatga nisbatan qo'llanila boshlagan insonning ijtimoiy muhitga moslashishi nuqtayi nazaridan fikr qilina boshlagan. Individning ma'lum bir taraqqiyot davomida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy muhitiga moslashuvi yuzasidan tahlil qilingan. G.V. Osipov esa ijtimoiylashuv jarayonini ikki bosqichga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, birinchi bosqich ijtimoiy adaptatsiya, ikkinchi bosqich ijtimoiy interior-

izatsiya. Bu jarayonda jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy normalar va qadriyatlar inson ichki dunyosida ko'nikmalar hosil qilishi, o'zlashtirilishini nazarda tutgan. G.M. Andreyeva tomonidan individ ijtimoiylashuv jarayonida bir vaqtning o'zida ham subyekt ham obyekt sifatida namoyon bo'lishini bu esa individning nafaqat passiv, balki uning faol o'rniiga ega ekanligini ko'rsatib beradi [3, 241-b].

Shunday qilib, huquqiy ijtimoiylashuv – jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy qadriyatlarni va tajribalarni individ tomonidan o'zlashtirilishi orqali huquqiy munosabatlarga kirishish jarayoni hisoblanadi. Huquqiy ijtimoiylashuvning maqsadi kishilarda huquq va qonunga nisbatan adekvat va uyg'un munosabat pozitsiyasini ishlab chiqish va jamiyat a'zolarida qonunga hurmat madaniyatni shakllantirishdan iborat [4, 54].

Huquqiy ijtimoiylashuv boshqa ijtimoiylashuv yo'nalishlari qatorida markaziy va asosiy o'rinni egallaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarni mustaqil hayotga tayyorlash eng qimmat va uzoq davom etadigan jarayonga aylanmoqda. Ijtimoiylashuv jarayoni individual jihatdan hamda jamiyat nuqtayi nazardan tahlil qilinishi va o'rganilishi mumkin. Jamiyat nuqtayi nazardan ijtimoiylashuv jarayoni o'rganiganda individning shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiylashuv agentlari va institutlarining o'rni va roli juda katta ahamiyatga egadir. Bu agentlar va institutlar kishilarning shaxs sifatida shakllanish jarayonida yo'naltiruvchi, rag'barlantiruvchi va cheklovchi funksiyasini bajaruvchi omillar hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv agentlari – oila, maktab, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalari.

Ijtimoiylashuv institutlari – ijtimoiylashuv jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazuvchi va yo'naltiruvchi xususiyatga ega bo'lgan tashkilotlar hisoblanadi.

Huquqiy ijtimoiylashuv jarayoni birlamchi va ikkilamchi bosqichlarga bo'linadi.

Birlamchi ijtimoiylashuv – dastlabki ijtimoiylashuv jarayoni hisoblanib, bolalik va yoshlik davriga to'g'ri keladi. Bu davrda axloqiy hamda psixofiziologik ijtimoiy sifatlar o'zlashtiriladi.

Ikkilamchi ijtimoiylashuv – individning shaxs sifatida shakllanib bo'lgan davriga to'g'ri keladi.

Kishilar ijtimoiylashuv jarayonining 12-17 yoshlik davrida huquqiy ijtimoiylashuvning subjekti sifatida ishtirot eta boshlaydi. Bu davr umumta'lim mакtablarining o'rta va yuqori sinflari hamda o'rta maxsus ta'lim maskanlari o'quvchilariga to'g'ri keladi. Yuvenologiya sohasidagi olimlarning fikricha, ushbu davrda ular yetuklik darajasiga erishib, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuv jarayoni bosqichida belgilovchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Ushbu davrda yoshlarda psixologik-fiziologik xususiyatlar ustunlikka ega bo'lib, ijtimoiy hayotga kirishish uchun tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Ikkinchi tomonдан esa ularning jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablariga ichki madaniyati va ichki talablar yig'indisini moslashtirish davridir. Yoshlar ijtimoiy mohiyati ijtimoiylashuv jarayoni xususiyatlari bilan bog'liqdir. Ushbu jarayon davomida ularda o'zlikni anglash, ijtimoiy ong va jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shakllanib boradi. Bunday holat shaxs rivojlanish faoliyatining keyingi davrida ijtimoiy harakat chegarasini hamda huquq bilan boshqariladigan ijtimoiy muhitda asosiy belgilovchi xarakterga ega bo'ladi.

Jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy qadriyatlarni o'zlashtirish va huquqiy ko'nikmalarni hosil qilishda individning shaxs sifatida shakllanishiga maqsadli va stixiyali ta'sir o'tkazish mumkin.

Huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida individning shaxs sifatida shakllanishiga maqsadli ta'sir ko'rsatishdan asosiy vazifa jamiyatga huquqiy shaxs shakllantirib berishdan iborat. Bu jarayonda individ xatti-harakati va xulq-atvoriga maqsadli va yo'naltiruvchi ta'sir vositasi sifatida ijtimoiy-huquqiy institutlar belgilovchi ahamiyatga egadir. Huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida individning huquqiy shaxs sifatida shakllanishiga stixiyali ta'sir ko'rsatishda ijtimoiy-huquqiy ko'nikmalar hosil qilish ijtimoiy muhit bilan bevosita munosabat avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Stixiyali huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida kishilar huquqiy madaniyat yo'nalishida yaratgan ko'nikmalar, faoliyat turlari bilan bevosita almashinuv jarayoni yuz beradi. Bu jarayon maqsadli va yo'naltirilgan ijtimoiylashuv mehanizm ishtirokisiz amalga oshadi. Bunday holat mikro muhit darajasida sodir bo'ladi hamda individ xatti-harakati va xulq-atvorida salbiy ko'nik-

malar hosil qilishga olib keladi. Buning natijasida individ xatti-harakati va xulq-atvor normalarida deviant xulq-atvor kelib chiqishi mumkin. Deviant xulq-atvor – ma'lum bir individ xulq-atvor normalarining umum tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalariga to'g'ri kelmasligi tushunladi.

Individ huquqiy ijtimoiylashuv jarayoni ko'plab omillar ta'siri asosida amalga oshadi. Bu jarayonga ta'sir qiluvchi eng asosiy omil ijtimoiy muhit hisoblanadi. Xususan individ ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy shart-sharoitlar ta'siri asosida huquqiy shaxs sifatida shakllanadi. Bunday omillar ta'siri ma'lum bir jamiyat taraqqiyoti bosqichida sodir bo'lishi mumkin. Jamiyat taraqqiyot bosqichi inqiroz yoki o'tish davriga to'g'ri kelsa, individ huquqiy ijtimoiylashuvida defekt yo viktimizatsiya holati ro'y beri-shi mumkin.

Huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida individda namunaviy xulq-atvor normalarining shakllanishida ijtimoiy institutlar ta'siri o'z o'rni ega. Bunday jarayon jamiyat strukturaviy tuzilishining turli darajalarida amalga oshishi mumkin. Birinchisi mikrotizim darajasi bu ijtimoiylashuv jarayonida individ oilada, mакtabda va tengdoshlar bilan bevosita munosabatda bo'lishadi. Ikkinchisi mezotizim darajasi bu jarayonda individ mikrotizim elementlari o'rtasida ishtirok etadi. Masalan, individ ijtimoiylashuv jarayonida oila va maktab o'rtasidagi munosabatda ishtirok etadi. Uchinchi daraja ekzotizim hisoblanadi, individ ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy institutlar asosiy o'rн egallaydi. Ijtimoiylashuv jarayonida individ bevosita ishtirok etmaydi. Ba'zi holatlarda bu darajaning individ ijtimoiylashuv jarayoniga kuchli ta'siri bo'lishi mumkin. Xususan, ota-onasi, ish joyi, ularning ishbilarmonlik muhiti hamda ish lavozimlari, ota-onalar bilan o'zaro munosabatlari muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. To'rtinchi daraja makrotizimdir. Bu madaniy borliq hisoblanib, o'z ichiga ijtimoiy qadriyatlari va mafkuraviy munosabatlarni qamrab oladi hamda yuqoridagi darajalarni mo'tadil faoliyatini bevosita ta'minlab beradi.

Shaxs ijtimoiylashuv jarayonida huquqiy ijtimoiylashuv agentlari asosiy o'rн egallaydi. Bular oila, maktab, tengdoshlar va ommaviy axborot vositalari. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra oila agenti huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida asosiy o'rн

egallaydi. Individ tomonidan dastlabki huquqiy ko'nikmalar o'zlashtiriladi. Oila o'ziga xos bo'lgan huquqiy ko'nikmalarni farzandlariga yetkazib berish vazifasini bajaradi. Dastlabki huquqiy ko'nikmalar burch, mas'uliyat, majburiyat va erkinlik tushunchalari orqali yetkaziladi.

Oilada o'zlashtirilgan huquqiy ko'nikmalar individ shaxs darajasiga yetgunga qadar hamrohlik qiladi. Ba'zi hollarda oilada olib borilayotgan tarbiyaviy jarayon individ huquqiy ijtimoiylashuvida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Xususan, ota-onaning jamiyatdagi ijtimoiy ahvoli, ularning alkogol mahsulotlariga munosabati, oiladagi konflikt holati, oilada ota yoki ona yo'qligi va ota-ona xulq-atvoridagi deviant xulq-atvor individ dunyoqarashiga va ijtimoiy xulqiga negativ ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatlarda huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida oila agentining roli va o'rni boshqa ijtimoiylashuv agentlariga, xususan, kichik ijtimoiy guruhlarga o'tayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, ota va onaning ish joylarida ko'proq vaqtini o'tkazishi, farzandlar bilan muloqotga kam vaqt ajratishi, bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiya maskanlarida asosiy vaqtini o'tkazishi (bugungi kunda maktabgacha ta'lim hamda o'rtalim maskanlariga xususiy sektorning kirib kelishi natijasida bolalarning bir kunda 24 soat maboynidagi vaqt birligining o'rtacha 8-9 soatini ushbu maskanlarda bo'lishi). Buning natijasida individda huquqiy ko'nikmalarni hosil qilishda va o'zlashtirishda kichik ijtimoiy guruhlarning va ma'muriy tashkilotlarning o'rni va ahamiyati kengroq ko'lamga ega bo'lmoqda.

Yana bir huquqiy ijtimoiylashuv agenti maktab hisoblanadi. Maktab ta'lim jarayonida o'quvchilarga huquq va u bilan bog'liq tushunchalar bilimlar tarzida yetkazib beriladi. Huquqiy ijtimoiylashuvning maktab agenti, oila agentidan prinsipial jihatdan farq qiladi. Oilada farzandga nisbatan emotsional munosabat shakllangan bo'lsa, maktabda esa bolalarga nisbatan rasmiy munosabat shakllanib boradi. Oilada farzandlariga gorizontal munosabat, maktab sharoitida vertikal munosabat ustunlikka ega bo'ladi. Maktab sharoitida bolalar maktab o'quvchilari o'rtasidagi o'quv jarayonida musobaqa qanday ahamiyat kasb etishi, muvaffaqiyatga erishish va muvaf-

faqiyatsizlik oldida qanday o'zini tutish ko'nikmalarini o'zlashtirib boradi.

Bundan tashqari maktabda tengdoshlar guruhi shakllanadi. Bolalarni yoshiga qarab sinflarga bo'linishi, ijtimoiylashuv jarayonida guruhlar ta'sirini kuchaytiradi. Huquqiy ijtimoiylashuvning mакtab davrida dastlabki norasmiy guruhlar shakllanishi uchun shart-sharoit yaratildi. Maktab o'qish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat vaqtinchalik hamda muddatli xarakterga egadir. O'quv das-turi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatda chegara vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan ular o'rtasidagi munosabat ko'p hollar-da standart hollarda amalga oshadi.

O'qituvchi dars mobaynida o'quvchilar ja-moasi ustidan dominantlik rolini bajarishi o'quvchilar tomonidan huquqiy ko'nikmalarini o'zlashtirishda ma'lum bir qiyinchiliklar tug'dradi. Ba'zi hollarda norasmiy guruhlarning o'quvchilar xatti-harakatiga individual tartibda ta'siri kuchayishi mumkin. Bu esa mакtab o'quvchisida norasmiy guruhlarda vujudga kelgan dunyoqarash, yurish-turish qoidalarini, xulq-atvor normalarini o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi. Bunday holat mакtab hamda norasmiy guruh muhitida o'zlashtirilgan huquqiy ko'nikmalar o'rtasida konflikt holatini kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari individ huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari tarkibiga televideniye, radio, gazeta, jurnal, internet va uning ijtimoiy tarmoqlar kiradi. Shu kunga qadar ommaviy axborot vositalari kishilarda huquqiy ko'nikmalarini hosil qilishda konsultativ xarakterga ega bo'lgan. Huquqiy ong shakllanishida ommaviy axborot vositalari-da bir tomonlama axborot va ma'lumotlar beril-gan. Internet va uning tarkibiga kiruvchi ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga kirib kelishi natijasida yoshlarda huquqiy ko'nikmalar hosil qilishda ikki tomonlama munosabat shakllana boshladi. Ommaviy axborot vositalarida beri-layotgan ma'lumot va axborot turlari ko'lami ko'payishi natijasida yoshlarda ularni o'z vaqtida tahlil qilish, kerak va nokerak fikr va mulohazalarni ajratib olish, ushbu axborot va ma'lumotlar asosida yoshlar tomonidan to'g'ri hukm va xulosa chiqarish eng asosiy masala bo'lib

qolmoqda. Bunday jarayonda kelib chiqadigan muammolar yoshlarda huquqiy ko'nikmalar hosil qilishda o'z aksini topadi va ta'sir ko'rsatadi natijada huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida bo'shliq yoki defekt holati kelib chiqishi mumkin.

Mahalla shaxs huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida o'z o'rni va ahamiyatiga ega. Oilaviy munosabatlar muhitida shakllangan huquqiy ko'nikmalar, mahalla sharoitida ishlab chiqilgan huquqiy va ahloqiy ko'nikmalarga moslashiriladi. Mahalla agenti oila agentidan farqli o'la-roq, shaxs xatti-harakati va xulq-atvorini mu-vofiqlashirida jamoatchilik fikri birinchi o'ringa chiqadi. Oila muhitida o'zlashtirilgan huquqiy ko'nikma va majburiyatlar, mahalla va jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlar va normalar bilan uyg'unlashtiriladi. Bunday holat shaxs xatti-harakati va xulq-atvorida o'z aksini topadi.

Huquqiy ijtimoiylashuv yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalar asosida quyidagi xulosa, taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

- shaxs huquqiy ijtimoiylashuv jarayoni jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi bilan bog'liqligini hisobga olgan holda jamiyatda mavjud bo'lgan huquqiy ko'nikmalarini ijtimoiy munosabatlarga kirib kelayotgan yangi huquqiy ko'nikmalar bilan boyitish va uyg'unlashtirish (jamiyat taraqqiyoti nisbiylik xarakteriga ega ekanligi). Jamiyatga kirib kelayotgan yangi huquqiy ko'nikmalar va qadriyatlarni inkorni inkor qonunini va vorisiylik kategoriyalari asno-sida tahlil qilish va qo'llash;

- jamiyat ijtimoiy struturasidagi mikrotizim, mezotizim va ekzotizim darajasidagi huquqiy munosabatlarni o'zaro bog'liqlik, bir-birini taqozo qilish, umumiylilik xususiylik yakkalik kate-goriyalarini qo'llagan holda o'rganish;

- huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida om-maviy axborot vositalari televideniye, radio, gazeta va jurnallar orasida internet va uning ij-timoiy tarmoqlari dominantlik roli va ahamiya-tini e'tirof etish. Bu sohada vujudga kelayotgan jamoatchilik fikrini o'rganish va munosabatlarni tartibga solish;

- ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy nazorat-ning ahamiyati, shaxs o'zini o'zi anglash darajasi-ga yetishda huquqiy ijtimoiylashuvning o'rni va rolini o'rganish zarurligi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. 2018-yil 7-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 26 yilligiga bag'ishlanan tantanali tadbirdagi nutqi [An educated generation is a guarantee of a great future, an entrepreneurial people is a guarantee of a prosperous life, and friendly cooperation is a guarantee of development. Speech at the solemn event dedicated to the 26th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan on December 7, 2018]. Available at: <https://xs.uz/uzkr/8476/> (accessed 05.01.2022).
2. Kant I. Logika [Logics]. Moscow, The science, 1980, p. 332.
3. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya [Social psychology]. Moscow, 1994, p. 241.
4. Ibragimov K. D. Prava i svobodyy cheloveka kak osnovnie elementi sotsialnoy jizni grajdanskogo obshchestva [Human rights and freedoms as the main elements of the social life of civil society]. Vestnik nauki i obrazovaniya – Bulletin of Science and Education, 2021, no. 8-2, pp. 52–55.
5. Aliqoriyev N. S. va boshq. Umumiy sotsiologiya [General Sociology]. Tashkent, 1999, pp. 42–49.
6. Aliyev B.A. va boshq. Sotsiologiya [Sociology]. Tashkent, 2005, pp. 42–49.
7. Maskalenko V.V. Sotsializatsiya lichnosti [Socialization of personality]. Kiev, 1986, pp. 18–19.
8. Kazarinova N.V. i dr. Sotsiologiya [Sociology]. Moscow, 2000, pp. 164–178.
9. Giddens E. Sotsiologiya [Sociology]. Tashkent, 2002, pp. 50–80, 82–183.
10. Shakabilovich S.S., Davletbaevich I.K., Rikhsivoevna S.A. Priority directions for the development of civil society in Uzbekistan. Solid State Technology, 2020.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.